

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

PEDAGOGIKA FAKULTETI

BOSHLANG'ICH TA'LIM VA TARBIYAVIY ISH YO'NALISHI

PEDAGOGIKA KAFEDRASI

«UMUMIY PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA AMALIYOTI» FANIDAN

**«O'z-o'zini tarbiyalash va uning mohiyati»
MAVZUSIDAGI**

KURS ISHI

Bajaruvchi: 1-bosqich talabasi M.Ochilova

Ilmiy rahbar: Sh.O'roqov

Kurs ishi pedagogika kafedrasida bajarildi.

Kafedra mudiri:

prof. K.Hasanova

Kurs ishi kafedraning 2013-yil ____ maydagi majlisida himoya qilindi va
_____ foizga baholandi.

Komissiya raisi:

A'zolari:

SAMARQAND – 2013

KIRISH

ASOSIY QISM

1. Tarbiya jarayonining mohiyati.
2. Milliy sharqona tarbiya mezonlari va yoshlarni oilada hamda maktabda tarbiyalash.
3. O'z-o'zini tarbiyalash va qayta tarbiyalash.
4. Ijtimoiy ta'sirlarning shaxs tomonidan anglanishi va o'z-o'zini tarbiyalashdagi o'rni

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Kirish

Hozirgi zamon pedagogikasida tarbiya tarbiyachining tarbiyalanuvchi shaxsiga oddiy taʼsir koʻrsatishi emas, balki tarbiyachilar tarbiyalanuvchilarning aniq bir maqsadga qaratilgan, bir-biri bilan hamkorlikdagi munosablari va oʻzaro taʼsir koʻrsatishi ekanligi alohida taʼkidlanadi. Bugungi kunda shunchaki bilim egasi boʻlgan insonni emas, balki ijodkor, oʻz isteʼdodi bilan ajralib turuvchi, ishbilarmon, har tomonlama rivojlangan komil insonni tarbiyalash zamon taqozosidir.

Axloqqa doir bilimlar jamoada odamlar xulqini tartibga soluvchi axloqiy tushunchalar, tamoyillar, talablar qoidalardan iborat. Har bir kishining oʻziga xos, maʼlum qonun-qoidalari boʻlganidek, bola tarbiyasining ham oʻziga xos muhim qonun-qoidalari borki, ularga amal qilish tarbiya ishining samarali boʻlishini taʼminlaydi.

Tarbiya qoidasi-pedagog taʼlim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalanadigan boshlangʻich holat, rahbarlik asosidir. Tarbiya qoidalari oʻqituvchi, tarbiyachilarga yoʻl-yoʻriq koʻrsatuvchi qoidalar hisoblanadi va tarbiyaviy jarayonda bu qoidalarga amal qilish uning samarasini oshiradi, yaxshi natijalarga olib keladi. Tarbiya qoidalari Sharq va Markaziy Osiyo faylasuf-donishmandlarining fikrlari va milliy pedagogika erishgan yutuqlarga asoslanadi.

Tarbiya jarayoni oʻz-oʻzini tarbiyalash bilan mustaxkam bogʻlangan. Oʻz-oʻzini tarbiyalash kishining oʻz shaxsini oʻzgartirishga qaratilgan faoliyatidir. Oʻz-oʻzini tarbiyalash toʻgʻri tarbiya berish bilan birga sodir boʻladi va ayni vaqtda toʻgʻri tarbiya natijasi hisoblanadi.

Oʻz-oʻzini tarbiyalashning muvaffaqiyatli boʻlishi uchun har bir kishi oʻz-oʻzini toʻgʻri baholay bilishga oʻrganishi, hayotda oʻzi intilishi lozim boʻlgan idealni aniq tushungan holda oʻzidagi ijobiy sifatlarni va mavjud kamchiliklarni

ko'ra olishi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi va tarbiyachilar, shuningdek otalar bolalarni kichik yoshdan boshlab o'zini o'zi eplash, tuta bilish, odamlar bilan qay yo'sinda muomala qilish, rost so'zlash, kattalarga hurmatda bo'lish, o'zidan kichiklarga mehribonlik ko'rsatish kabilarga o'rgatib, odatlantirib borishlari lozim. Bola o'zini-o'zi tarbiyalamasa, aql-farosatini ishga solmasa, tarbiyadan ko'zlangan natijaga erishib bo'lmaydi. Har bir bola o'zining xulq-atvoriga talabchan bo'lishi va o'zida eng yaxshi insoniy fazilatlarining tarkib topishi uchun astoydil tirishmog'i lozim.

Demak, o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni –bilish, istak, bajara olish va harakat qilishdan iborat. Bu harakatlarga motiv hosil qilish murakkab ruhiy jarayon bo'lib, bunda tarbiya nazariyasi to'g'risidagi bilimlar, sharqona tarbiya mezonlari, oilada va ta'lim muassasalarida tarbiya jarayonlari, ijtimoiy ta'sirlarning mohiyati to'g'risida chuqur bilimlar talab etiladi.

Hozirgi kunda pedagogikada tarbiya nazariyasi, tarbiyaning usul va shakllari, shuningdek mutafakkir allomalarimiz asarlaridagi tarbiyaviy g'oyalardan foydalanish yetarlicha o'rganilgan. Lekin o'z-o'zini tarbiyalash muammosi alohida tadqiqotlarda o'rganilmagan. Shu nuqtai nazardan mazkur kurs ishi uchun tanlangan mavzu dolzarb muammolardan biridir.

Tadqiqot maqsadi: Tarbiya jarayonining mohiyati va milliy sharqona tarbiya mezonlari asosida axloqiy tarbiyaning tarkibiy qism hisoblangan o'z-o'zini tarbiyalash va uning ijtimoiy omillarini o'rganish.

Tadqiqot obyekti: Milliy sharqona tarbiya mezonlari va o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni

Tadqiqot predmeti: Ijtimoiy ta'sirlarning shaxs tomonidan anglanishi va o'z-o'zini tarbiyalashdagi ahamiyati

Tadqiqot vazifalari:

- 1) Mavzuga oid ilmiy-nazariy manbalar va ilmiy tadqiqot ishlarini o'rganish
- 2) Tarbiya jarayonining mohiyatini yoritish

3) Milliy sharqona tarbiya mezonlari va yoshlarni oilada hamda maktabda tarbiyalash yo'llarini o'rganish

4) O'z-o'zini tarbiyalash va qayta tarbiyalash hamda ijtimoiy ta'sirlarning shaxs tomonidan anglanishi va o'z-o'zini tarbiyalashdagi ahamiyatini aniqlash

Tadqiqotning metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimining mazmunini belgilab beruvchi direktiv-me'yoriy hujjatlar, xususan, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Oliy va O'rta maxsus xalq ta'limi vazirliklari tomonidan qabul qilingan qarorlar, me'yoriy hujjatlar; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan tarbiya sohasida ilgari surilgan g'oyalar; Sharq mutafakkirlarining tarbiya to'g'risidagi yorituvchi qo'llanmalar; tadqiqotchi olimlarning ilmiy asarlaridan iborat.

ASOSIY QISM

1. Tarbiya jarayonining mohiyati.

Tarbiya nazariyasi –pedagogikaning bir qismi bo'lib, tarbiya jarayonining mazmuni, mohiyati, qoidalari, usuli va tashkil etilishi masalalarini o'rganadi. Tarbiya nazariyasi Markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi. Tarbiya ta'lim berish bilan mustahkam aloqada bo'lgani holda o'ziga xos qonuniyatlarga ega. Ta'lim-tarbiya yaxlit pedagogik jarayondir. Lekin ular bir-biriga aynan o'xshash emas. Bir butun pedagogik jarayonda ta'lim doimo tarbiyaviy vazifalarni, tarbiya esa hayotni bilish, unga tayyorlanishdek mas'uliyatli vazifani bajaradi. Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchilarni bilimlar bilan qurollantirish bo'lsa, tarbiyada o'quvchining jamiyatimizda qabul qilingan axloq-odob qoidalariga mos keladigan e'tiqodini, axloqiy malaka va ko'nikmalarini tarkib toptirish muhimdir.

Tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo'lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo'ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi. Tarbiya jarayoni murakkab jarayon bo'lib, u uzoq davom etadi hamda uning natijasini ko'rish qiyinroq kechadi. Bolalarni tarbiyalash ular tug'ilgan vaqtdan boshlanadi va muntazam ravishda ta'lim berish bilan birga olib boriladi. Bolaning o'sishi va tarbiyasi uning faoliyati jarayonida amalga oshiriladi. Tarbiya tarbiyalanuvchining ruhiyatiga tarbiyachiga ma'qul bo'lgan sifatlarni singdirish uchun, maqsadga muvofiq tarzda va muntazam ravishda ta'sir etishdir. Shuning uchun tarbiya avvalo tarbiyalanuvchi shaxsining tarkib topish jarayoniga rahbarlik qilishni taqozo etadi. Tarbiya davomida tarbiyalanuvchining qarashlari, hayotiy nuqtai nazari asta-sekin tarkib topib boradi.

Hozirgi zamon pedagogikasida tarbiya tarbiyachining tarbiyalanuvchi shaxsiga oddiy ta'sir ko'rsatishi emas, balki tarbiyachilar tarbiyalanuvchilarning aniq bir maqsadga qaratilgan, bir-biri bilan hamkorlikdagi munosabtlari va o'zaro ta'sir ko'rsatishi ekanligi alohida ta'kidlanadi. Bugungi kunda shunchaki

bilim egasi bo'lgan insonni emas, balki ijodkor, o'z iste'dodi bilan ajralib turuvchi, ishbilarmon, har tomonlama rivojlangan komil insonni tarbiyalash zamon taqozosidir.

Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi. Bola kattalarning tajribalarini sust holda emas, balki faol ravishda o'zlashtiradi: bu o'zlashtirishda uning ongli harakati, tirishqoqligi katta ahamiyatga ega bo'ladi. Tarbiyalanuvchilar muayyan darajada aktiv faoliyat ko'rsatmasalar tajriba va bilimni o'zlashtira olmaydilar. Bolaning yoshi ulg'aygan sari bu faollik tobora ko'proq mustaqil xususiyatlarga ega bo'lib boradi; tarbiyalanuvchilar o'zlarida dunyoqarashni tarkib toptirishga, o'z-o'zini takomillashtirish, tabiat, jamiyat va turmushda uchraydigan hodisalarni tushunishga ko'nika boradilar.

Tarbiyaga barcha davrlarning ilg'or kishilari yuqori baho berganlar. Xalq donishmandlari va mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zavqiy, Furqat, Avaz O'tar, Hamza, Abdulla Avloniy kabilar inson kamolotini ilm-fan va tarbiyada deb bilganlar.

2. Milliy sharqona tarbiya mezonlari va yoshlarni oilada hamda maktabda tarbiyalash.

Xalqimiz azal-azaldan axloqiy fazilatlarga boy bo'lgan. Ota-bobolarimiz farzand o'stirar ekanlar, ularning xulq-atvorlariga, gap-so'zlariga, kishilar oldida o'zlarini qanday tutishiga, o'z maqsadlarini qanday so'zlar bilan tushuntirishlariga katta ahamiyat berishgan. Ular farzandlarining qo'rslik qilishi, kattalar suhbatiga aralashishi, nojo'ya ishlariga zinhor-bazinhor yo'l qo'ymaganlar. Bu kabilarga farzand tarbiyasining eng muhim tomoni deb qaraganlar. Ammo, ming taassufki, yaqin tariximizda sharqona tarbiya, axloq-odobning ming yillik tajribalaridan «eskilik sarqiti» deb voz kechdik, o'zligimizni unutayozdik.

Sharqona odob ming yillar maboynida islomiy tarbiya qoidalari asosida tarkib topib, takomillashib borganligi tarixdan ma'lum. Jumladan, Qur'oni karim oyatlari mazmuni, Payg'ambar alayhissalom hadislar, sharq allomalari va faylasuflarining hikmatomuz kitoblari tarbiyamizning manbai bo'lib xizmat qilgan. Islomiy tarbiya musulmonlar hayotining barcha qirralarini, hatto mayda jihatlarigacha qamrab olgan. U go'daklarni emizishdan tortib, qanday kiyintirishgacha, ovqatlanish odobidan tortib, ko'cha-ko'yda, kattalar oldida o'zini qanday tutish lozimligigacha barcha jihatlarini o'z ichiga olgan. Eng asosiysi, islomiy odob farzandlarning halol, pok, mehnatkash, ilmga intiluvchi, kattalarni, ayniqsa, ota-onani hurmatlash ruhida tarbiyalashni shart qilib qo'ygan. Masalan, Rasululloh hadislarida: «Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilanglar!», «Hech bir ota o'z farzandiga xulqu odobdan buyukroq meros bera olmaydi», deyilgan. Demak, o'tmishda tarbiya berish hammaning vijdoniy burchi deb qaralgan.

O'zbek xalqi o'z madaniyati va ma'naviyatida komil insonlarni voyaga yetkazishga katta e'tibor bergan. Buning natijasida asrlar davomida aqlu zakovatga, qomusiy bilim va qobiliyatga ega bo'lgan yuqorida aytib o'tgan allomalarimiz kabi komil insonlar yetishib chiqdi va olamga tanildi.

Bugungi kunda mustaqil davlatimizda milliy tarbiya anʼanalari tiklanib, oilaviy hayotimizda muhim mezonga aylanmoqda. Bu esa, oʻz navbatida, sobiq shoʻro tarbiya nazariyasida oʻrganilishi mumkin boʻlmagan milliy odob, milliy eʼtiqod, imon-diyonat kabi insonning butun milliy xususiyatiga bevosita bogʻliq fazilatlarni yosh avlodning shaxsiy sifatlariga aylantirishni dolzarb vazifa qilib qoʻydi.

Milliy tarbiya Oʻzbekistonning davlat mustaqilligini mustahkamlash va amalga oshirishga tayyor farzandlarni tarbiyalab voyaga yetkazishga xizmat qiladi. Hozirgi davrda ushbu maqsadlarga erishishning oʻziga xos muammolari ham bor. Shulardan biri – milliy tarbiya nazariyasining asosiy qoidalari va ilmiy tushunchalari yaratilmaganligidir. Bularning barchasi Oʻzbekiston maktablarida milliy istiqlol tarbiyasining mezonlarini ilmiy asoslash zaruratini vujudga keltirmoqda.

Milliy tarbiya mezonlarini belgilashda mustaqil Oʻzbekistonning ijtimoiy buyurtmasi boʻlmish ijobiy sifatlar: milliy iftixor, vatanparvarlik, millatlararo muloqat madaniyati, milliy odob, vijdoniylik, imon-eʼtiqod, milliy istiqlol mafkuraviy ongini rivojlantirish zarur. Ularning aksi boʻlgan sifatlar: vatanpurushlik, mahalliychilik, vijdonsizlik, mafkurasizlik kabilarga yoshlarda nafrat uygʻotish darkor. Bu ishlarni bir-biri bilan uzviy bogʻlab olib borish oʻqituvchi-tarbiyachi va ota-onalardan tomonidan tarbiyaviy mezon qilib olinishi kerak. Ayniqsa, oilada milliy tarbiyani yoshlarga singdirishda dastlab milliy odobni (avval salomlashish, keyin soʻz boshlash, yaxshi va yomonni ajratish, kattalarga hurmat va kichiklarni izzatlash, ustozlarni eʼzozlash kabilarni), milliy gʻurur asoslarini (oʻzbek millatiga mansubligini anglash, Oʻzbekiston-Vatanim mening tuygʻusini chuqur anglash), vijdoniylik (andishali boʻlish, rostguylik, yolgʻon gapirmaslik, yaxshi va yomon xulqqa oʻzining toʻgʻri fikrini bildirish) kabilarni tarbiyalash, oʻqtirish, ularni axloqiy Nizomga aylantirish milliy tarbiyamizni yanada ravnaq toptiradi va kelajagimizni yuksaltiradi.

Maktabda taʼlim-tarbiya ishlarining samaradorligi faqat oʻqituvchining tayyorgarligi, maʼnaviy qiyofasi va oʻz vazifasini qanday bajarishigagina bogʻliq

bo'lmay, balki bola yashaydigan muhit va oilaning ta'siriga ham bog'liqdir. Oila bolani axloqiy tarbiyalash, uning ma'naviy-axloqiy yo'nalishlarini shakllantirishning muhim omilidir.

Oila erkaklar va ayollarning to'la teng huquqligi, oila uchun bab-baravar javobgarligi asosida quriladi. Ota-onalarning o'z hayotlari, turmush tarzlari, bola shaxsida ilmiy dunyoqarash asoslari, ma'naviy, axloqiy, nafosat, mehnat va boshqa ijtimoiy omillarni shakllantirish maqsadida tizimli ta'sir ko'rsatish jarayoniga oilaviy tarbiya deyiladi. Oila bola tarbiya oladigan eng birinchi jamoa bo'lib, bola unda axloqiy qoidalar, urf-odatlarini bilib oladi, dastlabki axloqiy tajriba orttiradi. Ayni paytda oilaviy hayot va oilaviy tarbiya o'zining milliy xususiyatlariga ham ega. Bu esa, o'z navbatida, oilaviy tarbiya usullari va mazmunining umumiy hamda xususiy tomonlari rivojida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Har bir inson yoshlikda ona qo'lida tarbiyalanadi. Ona allasi bilan birga bola qalbiga ona muhabbati singadi va onaning erkalatishlari bir umr yodda qoladi, oilada bola yaxshi bilan yomonning farqini ajratishni o'rganadi. Oila tarbiyasi orqali bola ongida umuminsoniy va milliy qadriyatlar, yashashdan maqsad haqida dastlabki tasavvurlar hosil bo'ladi. Oilada shaxsning ijtimoiy-qimmatli fazilatlarini o'sa boshlaydi. O'zbekiston sharoitida oilaviy tarbiya mazmuni tashkil etilishiga oid pedagogik omillar mavjudki, ularni hisobga olishga majburlaymiz.

Bola maktabga qadam qo'yganda yaxshi va yomon narsalar haqida o'z tasavvuriga ega bo'ladi. O'qituvchi bolada qanday axloqiy tushunchalar mavjudligini va axloqiy fazilatlar qanday sharoitda shakllanganligini ham bilmog'i kerak. Shuning uchun ham muallim o'quvchilarning ota-onalari bilan aloqa bog'lab, bolani tarbiyalashda ular bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi darkor. Tarbiyaning samaradorligi ko'pincha oila va maktabning bolaga nisbatan bir xil talab qo'ya bilishiga bog'liq. Shuning uchun ham pedagogik axloqda o'qituvchi bilan ota-onalarning o'zaro munosabatlari, muomalasiga katta e'tibor beriladi, muallim oila bilan aloqa va hamkorlik qilmasdan turib, bolani axloqiy

tarbiyalash vazifasini bajara olmaydi. Chunki maktab oilada shakllangan axloqiy fazilatlarni mustahkamlashi yoki illatlarni yo'qotishi lozim bo'ladi. Maktabda bolaga chuqur bilim, ta'lim-tarbiya mafkuraviy g'oya, o'zbekona milliy qadriyatlar, xalol mehnat, biror bir kasb-hunarni egallashlari uchun mustahkam poydevor yaratishdek mas'ul vazifani zamonaviy talab darajasida amalga oshirish lozim. Ularga ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalar, zamonaviy o'quv-metodik dasturlar asosida bilim berish, o'quv jarayonlarini jahon andozalariga mos didaktik jihatdan ta'minlab, o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini tahlil qilish kerak.

O'qituvchi pedagogik jarayonda asosiy figura, yetakchi kishidir. Unga yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash vazifasi yuklatilgan. Shuning uchun ham o'qituvchiga, uning axloqiy sifatlariga, xulqiga o'quvchilar bilan muomalasiga nisbatan alohida, yuksak talablar qo'yiladi. Muallim hayotga endigina kirib kelayotgan, barkamol shaxs sifatida shakllanayotgan yoshlarga ta'lim-tarbiya berib, ularni umuminsoniy va milliy axloq mezonlarini o'zlashtirishini ta'minlaydi. Shu boisdan ham o'qituvchi bola uchun bir umr idel, ibrat va namuna bo'lib qolishi keark. Afsuski, hamma o'qituvchilar haqida ham shunday deb bo'lmaydi. Kasbiy salohiyati yetarli emas, axloqiy fazilatlarida nuqsonli, o'zining dag'al muomalasi bilan yoshlarning ko'nglini o'qishdan sovitib, dilini o'rinsiz ranjitadiganlar ham uchrab turadi. Bundaylar yoshlar tarbiyasiga, ularning axloqiga salbiy ta'sir etadilar. Tarbiyaviy ishlarga tuzatish qiyin bo'lgan darajada ziyon yetkazadilar.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, yoshlarda kattalarning xatti-harakatlari, axloqiy fazilatlariga tanqidiy munosabatda bo'lish hissi kuchli bo'ladi. Shu jihatdan qaraganda tinch-totuv yashaydiganlarning oilalaridagi bolalar ham shu oilada mavjud bo'lgan axloqiy xislatlar: xushmuomalalik, odoblilik, kattalarga hurmat, kichiklarga g'amho'rlik qilish, oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro hurmat kabi ijobiy fazilatlardan namuna oladilar.

Pedagog olimlar tadqiqotlarida isbotlanganidek, oilaviy tarbiyaga doir ishlar quyidagi sharoitlarda bajarilsa, tarbiya samaradorligi yanada oshadi:

1. Maktab o'zining barcha ta'sirlari majmuini oilaviy tarbiya jarayoniga izchil yo'naltirsa;
2. O'qituvchilar jamoasi oila bilan o'zaro hamkorligi davrida o'zlarining etik-pedagogik tarbiyaviy talablarini to'g'ri tashkil etsa;
3. Ta'lim maskanlaridagi tarbiyaviy jarayonga tashkilotchi ota-onalar uyushtirilsa;
4. O'qituvchilar tomonidan oilaviy tarbiyaga rahbarlik bolalar maktabga kelmasdan oldin boshlansa va bu ish ularning barcha o'quv yillarida davom ettirilsa. Demak, maktab, oila va jamoatchilik hamkorligi bolalar tarbiyasida asosiy hal qiluvchi bo'g'in bo'lib, bunda o'qituvchi-tarbiyachilarning bir maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy ishlari muammoni ijobiy hal etuvchi omil hisoblanadi.

Oliy maktabda amalga oshiriladigan axloqiy tarbiya jarayonida talabalarning ruhiyatiga, ularning ongiga ta'sir etiladi. Bu umuminsoniy va milliy axloqning tamoyillari va pedagogik odob qoidalarini har bir bo'lajak o'qituvchining ongiga yetkazish, singdirish demakdir. Talabalarning axloqiy shakllanishi bir-biri bilan uzviy bog'liq ta'lim-tarbiya ishlarini muntazam va izchil ravishda bajarishni talab etadi. Tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning aniq va mukammal tizimigina axloqiy tarbiyaning samaradorligini ta'minlaydi. Tarbiyaviy ishda mukammal tizimning mavjudligi bir xil ishni ortiqcha takrorlayvermaslikka, bo'lajak muallimlarga bir xil talablar qo'yish va yakdillik bilan ta'sir o'tkazishga imkon beradi.

Axloqiy tarbiya tizimi nima? Tizim, qismlardan tuzilgan bir butun, ya'ni tartib bilan joylashtirilgan bir-biriga bog'liq qismlardan tuzilgan yaxlit bir narsa, degan ma'noni bildiradi. Oliy maktabda bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy tarbiya tizimini yaratish oliy o'quv yurtida amalga oshirilayotgan barcha tarbiyaviy ishlarining mazmuni va yo'nalishini belgilashga ko'maklashadi. Tarbiyaviy ishlar tizimi turli kurslarning (I, II, III, IV, V) talabalari bilan o'tkaziladigan tadbirlarda izchillik va ketma-ketlikni saqlashga yordam beradi.

Oliy maktab talabalarida axloqiy sifatlar qandaydir biror universal shakl, vosita yoki usul yordamida emas, balki xilma-xil shakllar, vositalar va metodlar, ya'ni axloqiy tarbiya tizimi natijasida shakllanadi. Tarbiyaviy ishlar tizimi ma'lum vazifani bajaradigan, tuzilish jihatidan o'zaro bog'liq bo'lgan ko'plab qismlarni o'z ichiga oladi. Tarbiya tizimi barkamol avlodni, yuksak axloqiy fazilatli mutaxassislarni shakllantirish maqsadiga bo'ysundirilgan, o'zaro bir-biriga bog'liq va mos keladigan shakl, usul va vositalarning yaxlit birligidan iborat. Masalan, ta'lim jarayonida faqat axloqiy tarbiyagina emas, balki aqliy, xuquqiy, iqtisodiy, ekologik, estetik va mehnat tarbiyasi ham amalga oshiriladi.

Har qanday tarbiya tizimining asosiy belgilaridan biri izchillik, ketma-ketlikdir. Oliy maktabda amalga oshiriladigan axloqiy tarbiya tizimi ham ana shu qonuniyatga asoslanadi. Axloqiy tarbiya tizimi bir necha tizimchalardan tuziladi. Umumiy tizimning har bir qismi o'zining ichki tizimiga ham ega bo'ladi. Masalan, oliy maktabda talabalarga beriladigan kasbiy ta'lim ma'lum bir tizim asosida tuzilgan bo'lib, u yoshlarga ijtimoiy-gumanitar, psixopedagogik, ixtisosiy bilimlar va axloqiy tarbiya berishga xizmat qiladi.

Axloqiy tarbiya guruh murabbiylari, jamoat tashkilotlari, talabalar va professor-o'qituvchilar jamoalari ishida ham tizim bo'lishini talab etadi. Axloqiy tarbiya tizimi talabalarning oliy maktabda ta'lim olish yillari davomida deyarli o'zgarmaydi. Faqat uning mazmunigina yangilanadi. Tarbiyaning maqsad va vazifalari hamda bu vazifalarni hal etishga yordam beradigan faoliyat turlari, tarbiyaning shakllari va metodlari, turli ichki va tashqi ta'sirlar natijasida shaxsning kamolga erishish bosqichlari va darajalari axloqiy tarbiya tizimining asosiy qismlari hisoblanadi.

Xullas, axloqiy tarbiya tizimining barcha qismlari talabalarning xilma-xil faoliyati bilan bevosita bog'liq. Bu faoliyat jarayonida talabalar jamoasida ob'ektiv axloqiy munosabatlar vujudga keladi. Mashg'ulotlar va faoliyat turlarini bajarish natijasida ob'ektiv munosabatlar talabalarning shaxsiy odob, muomala-munosabatlariga aylanadi va shu jarayonda bo'lajak mutaxassisning axloqiy fazilatlari shakllanadi.

3. O'z-o'zini tarbiyalash va qayta tarbiyalash.

Tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash bilan mustaxkam bog'langan. O'z-o'zini tarbiyalash kishining o'z shaxsini o'zgartirishga qaratilgan faoliyatidir. O'z-o'zini tarbiyalash to'g'ri tarbiya berish bilan birga sodir bo'ladi va ayni vaqtda to'g'ri tarbiya natijasi hisoblanadi.

O'z-o'zini tarbiyalashning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun har bir kishi o'z-o'zini to'g'ri baholay bilishga o'rganishi, hayotda o'zi intilishi lozim bo'lgan idealni aniq tushungan holda o'zidagi ijobiy sifatlarni va mavjud kamchiliklarni ko'ra olishi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi va tarbiyachilar, shuningdek otalar bolalarni kichik yoshdan boshlab o'zini o'zi eplash, tuta bilish, odamlar bilan qay yo'sinda muomala qilish, rost so'zlash, kattalarga hurmatda bo'lish, o'zidan kichiklarga mehribonlik ko'rsatish kabilarga o'rgatib, odatlantirib borishlari lozim. Bola o'zini-o'zi tarbiyalamasa, aql-farosatini ishga solmasa, tarbiyadan ko'zlangan natijaga erishib bo'lmaydi. Har bir bola o'zining xulq-atvoriga talabchan bo'lishi va o'zida eng yaxshi insoniy fazilatlarning tarkib topishi uchun astoydil tirishmog'i lozim. Demak, o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni –bilish, istak, bajara olish va harakat qilishdan iborat.

O'z-o'ziga, o'z ishiga tanqidiy munosabatda bo'lish o'z-o'zini axloqiy tarbiyalash jarayonida zarur xislatlardan biridir. Bunday xislat o'z-o'zini tarbiyalash uchun kishiga o'z kamchiliklarini aniqlash, ularni bartaraf etish maqsadini o'z oldiga quyishga imkon yaratadi. Kishi o'ziga, o'z xulqi, xatti-harakatlariga nisbatan tanqidiy ko'z bilan qaramasa, o'z-o'zini tarbiyalab bo'lmaydi. Shuning uchun kishida bunday xislatlarni yoshlikdan tarbiyalab o'stirish maqsadga muvofiq.

O'z-o'zini tarbiyalash bolaning doimiy ishi bo'lmog'i va uzluksiz davom etmog'i zarur. Chunki haqiqiy tarbiya bolani o'z kuchi, layoqatlari va qobiliyatlarini ishga solishga undaydi, uning ideallarini, shaxsiy mulohazalarini, e'tiqodini tarkib toptiradi. Natijada bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaviy jarayon o'z-o'zini tarbiyalash jarayoniga aylanadi.

Pedagogik faoliyatning muhim jihatlaridan biri ham o'z-o'zini axloqiy tarbiyalashdir. O'rta Osiyo xalqlarining umuminsoniy va milliy ma'naviy qadriyatlarida inson o'zligini anglab olishi, o'z odatlari va sifatlarini o'zgartirishga qodir ekanligi ta'kidlanadi. Kishining o'z shaxsini axloqiy ideallar, axloqiy bilimlar, e'tiqodlar asosida shakllantirish maqsadiga yo'naltirilgan faoliyati o'z-o'zini axloqiy tarbiyalashdir.

O'z-o'zini axloqiy tarbiyalash bu- kishining ijtimoiy tajribada mavjud bo'lgan va shu jamiyat a'zolarining ongida mustahkamlanib qolgan axloqiy odatlar va sifatlarini egallab olishga yo'naltirilgan faoliyatidir.

O'z-o'zini axloqiy tarbiyalash har bir shaxsning mehnat jamoalari, ma'lum bir guruh, kasb egalarining mehnat faoliyatida qatnashishi jarayonida yuz beradi. Maktabda o'qish yillari inson hayotida axloqiy izlanishlar davriga to'g'ri keladi. Bu davrda bolalarni o'z-o'zini tarbiyalashga da'vat etish samarali bo'ladi. Muallim o'quvchilarning o'z-o'zini axloqiy tarbiyalash ishini tashkil etish, amalga oshirishga da'vat etar ekan, avvalo uning o'zi o'z shaxsini muntazam takomillashtirish, o'zining axloqiy saviyasini kengaytirib, axloqiy odat va sifatlarini o'stira borishi lozim. O'z-o'zini axloqiy tarbiyalash tajribasiga ega bo'lmagan kishi boshqalarga bu ishni o'rgata olmaydi.

O'z-o'zini tarbiyalash ishini samarali amalga oshirish uchun o'quvchidan quyidagilar talab etiladi:

axloqiy rivojlanish sohasida ergashish, taqlid qilish lozim bo'lgan namunani (idealni) ko'z oldiga aniq keltirish;

o'z-o'zini tarbiyalashning negizi sifatida o'z bilimlarini mustaqil oshirishi uchun bo'sh vaqtga ega bo'lish va undan unumli foylanishni to'g'ri yo'lga qo'yish;

o'z-o'ziga, o'z ishiga tanqidiy munosabatda bo'lish va shu kabilar. Kishi o'ziga, o'z xulqi, xatti-harakatlariga nisbatan tanqidiy ko'z bilan qaramasa, o'z-o'zini tarbiyalab bo'lmaydi. Shuning uchun kishida bunday xislatni yoshlikdan tarbiyalab o'stirish maqsadga muvofiq.

Kishining borliqdagi narsa va hodisalardan, insonlarning xatti-harakatlaridan ta'sirlanishi natijasida axloqiy-ruhiy tuyg'u, axloqiy-hissiy

kechinmalar hosil bo'ladi. Axloqiy his-tuyg'u g'ar kimda turli darajada rivojlangan bo'lib, o'zgaruvchan xususiyatga ega. Ayrim odamlarda hissiyotga beriluvchanlik, o'zini tuta olmaslik holatlari mavjud. O'zini tiya bilish kishining axloqiy madaniyati yuksakligini ko'rsatadi. O'qituvchining o'qituvchilik madaniyati, axloqiy his-tuyg'ulari o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning kuchli vositasidir. U bolalarda axloqiy e'tiqodni hosil qilish uchun ham juda zarur. Ma'lumki, kishining xulqi, xatti-harakatlari ko'pincha bilimlardan ko'ra ham hissiyot ta'sirida sodir bo'ladi. Demak, pedagogik faoliyat uchun o'qituvchi o'z hissiyotini boshqara bilishi, hissiy tuyg'ularni tarbiyalashi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar va o'quvchilar jamoasida o'zaro bir-birlarini tushunish, o'zaro hurmat va ishonch vaziyati mavjud bo'lishi lozim. Bunday vaziyatni yaratish o'qituvchilar jamoasiga, har bir muallimga bog'liq.

Xulqiy odatlar, axloqiy qarashlar kishining his-tuyg'usi bilan chambarchas bog'liq. His-tuyg'ular hushyorlikni oshiradi, oliyanob insoniy xatti-harakatlarni jonlantiradi va aksincha, muallimning loqaydligi, befarosatligi bolalarda ba'zi illatlar paydo bo'lishiga olib keladi. Shuning uchun ham, "tepsa, tebranmas", "dunyoni suv bossa, to'pig'iga kelmaydigan" hissiz kishilarni o'qituvchilik, tarbiyachilik ishiga qo'yish to'g'ri emas. Pedagogika o'quv yurtlariga abuturiy tanlashda ham hushyorlik his-tuyg'usi mavjudligini e'tiborga olish kerak.

O'qituvchining axloqiy his-tuyg'ulari kishi ma'naviy olamining muhim sohasini tashkil etadi. O'qituvchining axloqiy his-tuyg'ulari uning o'z faoliyatiga, ta'lim-tarbiya ishiga, pedagogik jarayonning barcha ishtirokchilari: o'quvchilar, kasbdoshlari, ota-onalarga nisbatan sub'ektiv axloqiy nuqtai nazarini ifodalaydi.

O'qituvchining axloqiy his-tuyg'ulari shartli ravishda ikki guruhga bo'linadi: birinchisi, muallimning pedagogik kasbiga, o'z ishiga munosabatidan (o'z kasbidan zavqlanish, g'ururlanish, o'qituvchilik burchi, bolalar tarbiyasi uchun mas'uliyatni anglashkabilardan) hosil bo'ladigan his-tuyg'ular. (Qarang: V. I. Pisarenko. "Pedagogicheskaya etika", Minsk, 1977, 117-bet.)

O'z ishiga tanqidiy munosabatda bo'lish, undan g'ururlanish, zavqlanish, o'z qadr-qimmatini anglash kabi his-tuyg'ular o'qituvchining professional-axloqiy qiyofasini ko'rsatadi. Bu ayniqsa, muallimning jamiyatga, davlatga munosabati, O'zbekistonni sevisht, unda yashaydigan turli millat va elat vakillariga hurmat, milliy g'urur, pedagoglik burchiga sadoqat kabi his-tuyg'ularda namoyon bo'ladi. O'qituvchining vatanparvarlik his-tuyg'usi o'quvchilarni axloqiy tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning o'z Vatani va xalqining taqdiri, kelajagi uchun qayg'urishi, jon kuydurishidan dalolat beradi. O'quvchilar muallimning har bir so'zi, xatti-harakatida O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratish uchun jon-dildan harakat qilayotganini his etishlari lozim. Uzoq yillar davom etgan mustamlakachilik siyosati natijasida xalqimizda so'nib qolgan milliy g'ururni qayta uyg'otish, Vatanimizning ozodligi, mustaqilligi, qadrini anglash, yoshlarimiz qalbida undan g'ururlanish his-tuyg'usini ustirish uchun muallimning milliy g'urur-iftixori tarbiyaning bebaho manbai va kuchli vositasi hisoblanadi.

O'qituvchida insonparvarlik, baynalmilalchilik his-tuyg'usi kuchli rivojlangan bo'lishi lozim. Bu tuyg'u O'zbekistonning mustaqillik mafkurasiga mos keladi. O'quvchilarda insonparvarlik, baynalmilalchilik hislarini tarbiyalab ustirish orqali mamlakatimiz xalqlarining tinch, hamjihat bo'lib yashashi va mehnat qilishlariga mustahkam zamin yaratadi. Bunday tuyg'u o'zbek xalqining qadimiy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining tarkibiy qismi hamdir.

O'qituvchining axloqiy nuqtai nazarini belgilaydigan muhim his-tuyg'ulardan yana biri o'qituvchilik burchini, mas'uliyatni his etishdir. Bu tuyg'u muallimni bolalarni sidqi dildan, vijdonan sevishtga, o'qitish va tarbiyalash ishini halol va ijodiy bajarishga undaydi. Bunday tuyg'u inson shaxsini shakllantiruvchi barcha ijtimoiy-iqtisodiy, hayotiy shart-sharoitlar ta'sirida hosil bo'ladi. U badiiy asarlarni o'qish, o'rganish va muallimning shaxsiy namunasi ta'sirida o'quvchilik davridayoq paydo bo'la boshlaydi. Bolalar "muallim-muallim", "maktab-maktab", o'ynab, o'qituvchiga taqlid qiladilar, agar topshirilsa, quyi sinf o'quvchilari bilan tarbiyaviy ishlarni

bajarishga astoydil urinadilar, intiladilar. Bu keyinchalik pedagoglik kasbini tanlashga ham sabab bo'ladi. Pedagogika o'quv yurtlarining talabalari bilan o'tkazilgan suhbat va yozma ish natijalari bundan dalolat beradi.

Shunday qilib, tarbiyalash, o'z-o'zini tarbiyalash va qayta tarbiyalash jarayonlari o'zaro mustahkam bog'langan bo'lib, inson shaxsini tarkib toptirishning bir butun jarayonida doimo bir-biriga ta'sir o'tkazadi.

4. Ijtimoiy ta'sirlarning shaxs tomonidan anglanishi va o'z-o'zini tarbiyalashdagi o'rni

Ijtimoiy normalar, sanksiyalar, rollar ijtimoiy mexanizmlar sifatida shaxs xulq-atvorini malum manoda boshqarib, muvofiqlashtirib turishga yordam beradi. Lekin insonning komiligi, uning ahloq — ijtimoiy normalar doirasidagi maqbul xarakati uning o'ziga ham bog'liqdir. Odamning o'z-o'zini anglashi, bilishi va o'z ustida ishlashi avvalo uning diqqati, ongi bevosita o'ziga, o'z ichki imkoniyatlari, qobiliyatlari, hissiy kechinmalariga qaratilishini taqozo etadi. Ya'ni, ijtimoiy xulq-shaxs tomonidan uni o'rab turgan odamlar, ularning xulq-atvorlariga e'tibor berishdan tashqari, o'zining shaxsiy xarakatlari va ularning oqibatlarini muntazam tarzda tahlil qilib borish orqali, rollarni muvofiqlashtirishni ham taqozo etadi.

Shaxsning o'zi, o'z xulq-atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeyini tasavvur qilishidan hosil bo'lgan obraz — «Men» — obrazi deb atalib, uning qanchalik adekvatligi va reallikka yaqinligi shaxs barkamolligining mezonlaridan hisoblanadi.

«Men» — obrazining ijtimoiy psixologik ahamiyati shundaki, u shaxs tarbiyasining va tarbiyalanganligining muhim omillaridan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, tarbiya shaxsning o'zi va o'z sifatlari to'g'risidagi tasavvurlarining shakllanishi jarayonidir, deb ta'rif berish mumkin. Demak, har bir inson o'zini, o'zligini qanchalik aniq va to'g'ri bilsa, tasavvur qilolsa, uning jamiyat normalariga zid harakat qilish ehtimoli ham shunchalik kam bo'ladi, ya'ni u tarbiyalangan bo'ladi.

O'z-o'zini anglash, o'zidagi mavjud sifatlarni baholash jarayoni ko'pincha konkret shaxs tomonidan og'ir kechadi, ya'ni, inson tabiati shundayki, u o'zidagi o'sha jamiyat normalariga to'g'ri kelmaydigan, no'maqul sifatlarni anglamaslikka, ularni «yashirishga» harakat qiladi, xattoki, bunday tasavvur va bilimlar ongsizlik sohasiga siqib chiqariladi (avstriyalik olim Z. Freyd nazariyasiga ko'ra). Bu ataylab qilinadigan ish bo'lmay, u har bir shaxsdagi o'z

shaxsiyatini o'ziga xos himoya qilish mexanizmidir. Bunday himoya mexanizmi shaxsni ko'pincha turli xil yomon asoratlardan, hissiy kechinmalardan asraydi. Lekin shuni alohida ta'kidlash lozimki, «Men» — obrazining ijobiy yoki salbiyligida yana o'sha shaxsni o'rab turgan tashqi muhit, o'zgalar va ularning munosabati katta rol o'ynaydi. Odam o'zgalarga qarab, go'yoki oynada o'zini ko'rganday tasavvur qiladi. Bu jarayon psixologiyada **refleksiya** deb ataladi. *Uning mohiyati* — aynan o'ziga o'xshash odamlar obrazi orqali o'zi to'g'risidagi obrazni shakllantirish, jonlantirishdir. Refleksiya «Men» — obrazi egasining ongiga taalluqli jarayondir. Masalan, ko'chada bir tanishingizni uchratib qoldingiz. Siz tinmay unga o'z yutuqlaringiz va mashg'ulotlaringiz haqida gapirmoqdasiz. Lekin gap bilan bo'lib, uning qayergadir shoshayotganligiga e'tibor bermadingiz. Shu narsani siz uning betoqatlik bilan sizni tinglayotganligidan, hayoli boshqa yerda turganligidan bilib qolasiz va shu orqali ayni shu paytda «mahmadona, laqmaroq» bo'lib qolganingizni sezasiz. Keyingi safar shu o'rtog'ingiz bilan uchrashganda, oldingi xatoga yo'l qo'ymaslik uchun «O'rtoq, shoshmayapsanmi?» deb so'rab ham qo'yasiz. Ana shu ilgarigi refleksiyaning natijasidir. Ya'ni, suhbatdosh o'rniga turib, o'zingizga tashlangan nazar («men unga qanday ko'rinyapman?») — refleksiyadir.

Shaxsning o'zi xaqidagi obrazi va o'z-o'zini anglashi yosh va jinsiy o'ziga xoslikka ega. Masalan, o'ziga nisbatan o'ta qiziquvchanlik, kim ekanligini bilish va anglashga intilish ayniqsa, o'smirlik davrida rivojlanadi. Bu davrda paydo bo'ladigan «kattalik» xissi qizlarda ham, o'smir yigitchalarda ham nafaqat o'ziga, balki o'zgalar bilan bo'ladigan munosabatlarini ham belgilaydi. Qizlardagi «Men» — obrazining yaxshi va ijobiy bo'lishi ko'proq bu obrazning ayollik sifatlarini o'zida mujassam eta olishi, ayollik xislatlarining o'zida ayni paytda mavjudligiga bog'liq bo'lsa, yigitlardagi obraz ko'proq jismonan barkamollik mezonlari bilan nechog'li uyg'un ekanligiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham o'smirlikda o'g'il bolalardagi bo'yni pastligi, muskullarning zaifligi va shu asosda qurilgan «Men» — obrazi qator salbiy taassurotlarni keltirib chiqaradi. Qizlarda esa tashqi tarafdin go'zallikka,

kelishganlik, odob va ayollarga xos qator boshqa sifatlarning bor — yo'qligiga bog'liq xolda «Men» obrazi mazmunan idrok qilinadi. Qizlarda ham ortiqcha vazn yoki terisida paydo bo'lgan ayrim toshmalar yoki shunga o'xshash fiziologik nuqsonlar kuchli salbiy emosiyalarga sabab bo'lsa-da, baribir, chiroyli kiyimlar, taqinchoqlar yoki sochlarning o'ziga xos turmagi bu nuqsonlarni bosib ketadigan omillar sifatida qaraladi.

«Men» — obrazi va o'zini-o'zi baholash. «Men» — obrazi asosida ham bir shaxsda o'z-o'ziga nisbatan baholar tizimi shakllanadiki, bu tizim ham obrazga mos tarzda har xil bo'lishi mumkin. **O'z-o'ziga nisbatan baho** turli sifatlari va shaxsning orttirilgan tajribasi, shu tajriba asosida yotgan yutuqlariga bog'liq holda turlicha bo'lishi mumkin. Ya'ni, ayni biror ish, yutuq yuzasidan ortib ketsa, boshqasi ta'sirida — aksincha, pastlab ketishi mumkin. Bu baho aslida shaxsga boshqalarning real munosabatlariga bog'liq bo'lsa-da, aslida u shaxs ongi tizimidagi mezonlarga, ya'ni, uning o'zi subyektiv tarzda shu munosabatlarni qanchalik qadrlashiga bog'liq tarzda shakllanadi. Masalan, maktabda bir fan o'qituvchisining bolaga nisbatan ijobiy munosabati, doimiy maqtovlari uning o'z-o'ziga bahosini oshirsa, boshqa bir o'qituvchining salbiy munosabati ham bu bahoni pastlatmasligi mumkin. Ya'ni, bu baho ko'proq shaxsning o'ziga bog'liq bo'lib, u subyektiv xarakterga egadir.

O'z-o'ziga baho nafaqat xaqiqatga yaqin (adekvat), to'g'ri bo'lishi, balki u o'ta past yoki yuqori ham bo'lishi mumkin.

O'z-o'ziga bahoning past bo'lishi ko'pincha atrofdagilarning shaxsga nisbatan qo'yayotgan talablarining o'ta ortiqchiligi, ularni uddalay olmaslik, turli xil e'tirozlarning doimiy tarzda bildirilishi, ishda, o'qishda va muomala jarayonidagi muvaffaqiyatsizliklar oqibatida xosil bo'lishi mumkin. Bunday o'smir yoki katta odam ham, doimo tushkunlik holatiga tushib qolishi, atrofdagilardan chetroqda yurishga harakat qilishi, o'zining kuchi va qobiliyatlariga ishonchsizlik kayfiyatida bo'lishi bilan ajralib turadi va bora-bora shaxsda qator salbiy sifatlari va hatti-xarakatlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Xattoki, bunday xolat suisidal harakatlar, ya'ni o'z joniga qasd qilish, real borligidan «qochishga» intilish psixologiyasini ham keltirib chiqarishi mumkin.

O'zi-o'ziga baho o'ta yuqori ham shaxs xulq-atvoriga yaxshi ta'sir ko'rsatmaydi. Chunki, u ham shaxs yutuqlari yoki undagi sifatlarning boshqalar tomonidan sun'iy tarzda bo'rttirilishi, noo'rin maqtovlar, turli qiyinchiliklarni chetlab o'tishga intilish tufayli shakllanadi. Ana shunday sharoitda paydo bo'ladigan psixologik xolat «noadekvatlilik effekti» deb atalib, uning oqibatida shaxs xattoki, mag'lubiyatga uchraganda yoki o'zida nochorlik, uquvsizliklarni sezganda ham buning sababini o'zgalarda deb biladi va shunga o'zini ishontiradi ham (masalan, «xalaqit berdi-da», «falonchi bo'lmaganida» kabi bahonalar ko'payadi). Ya'ni, nimaiki bo'lmasin, aybdor o'zi emas, atrofdagilar, sharoit, taqdir aybdor. Bundaylar xaqida bora-bora odamlar «oyog'i yerdan uzilgan», «manmansiragan», «dimog'dor» kabi sifatlarni bilan gapira boshlaydilar. Demak, o'z-o'ziga baho realistik, adekvat, to'g'ri bo'lishi kerak.

Realistik baho shaxsni o'rab turganlar — ota-ona, yaqin qarindoshlar, pedagog va murabbiylar, qo'ni-qo'shni va yaqinlarning o'rinli va asosli baholari, real samimiy munosabatlari mahsuli bo'lib, shaxs ushbu munosabatlarni ilk yoshligidanoq xolis qabul qilishga, o'z vaqtida kerak bo'lsa to'g'rilashga o'rgatilgan bo'ladi. Bunda shaxs uchun etalon, ibratli hisoblangan insonlar guruhi — **referent** guruhning roli katta bo'ladi. Chunki biz kundalik hayotda hammaning fikri va bahosiga quloq solavermaymiz, biz uchun shunday insonlar mavjudki, ularning hattoki, oddiygina tanbehlari, maslahatlari, hattoki, maqtab turib bergan tanbehlari ham katta ahamiyatga ega. Bunday referent guruh real mavjud bo'lishi (masalan, ota-ona, o'qituvchi, ustoz, yaqin do'stlar), yoki noreal, hayoliy (kitob qahramonlari, sevimli aktyorlar, ideal) bo'lishi mumkin. Shuning uchun yoshlar tarbiyasida yoki real jamoadagi odamlarga maqsadga muvofiq ta'sir yoki tazyiq ko'rsatish kerak bo'lsa, ularning etalon, referent guruhini aniqlash katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi.

Shunday qilib, o'z-o'ziga baho sof ijtimoiy xodisa bo'lib, uning mazmuni va mohiyati shaxsni o'rab turgan jamiyat normalariga, shu jamiyatda qabul qilingan

va e'zozlanadigan qadriyatlarga bog'liq bo'ladi. Keng ma'nodagi yirik ijtimoiy jamoalar etalon rolini o'ynashi oqibatida shakllanadigan o'z-o'ziga baho — o'z-o'zini baholashning yuksak darajasi hisoblanadi. Masalan, mustaqillik sharoitida mamlakatimiz yoshlari ongiga milliy qadriyatlarimiz, vatanparvarlik, adolat va mustaqillik mafkurasiga sadoqat xislarining tarbiyalanishi, tabiiy, har bir yosh avlodda o'zligini anglash, o'zi mansub bo'lgan xalq va millat ma'naviyatini qadrlash xislarini tarbiyalamoqda. Bu esa, o'sha yuksak o'z-o'zini anglashning poydevori va muhim shakllantiruvchi mexanizmidir. Demak, o'z-o'zini baholash — o'z-o'zini tarbiyalashning muhim mezonidir. O'z-o'zini tarbiyalash omillari va mexanizmlariga esa, quyidagilar kiradi:

- o'z-o'zi bilan muloqot (o'zini konkret tarbiya obyekti sifatida idrok etish va o'zi bilan muloqotni tashkil etish sifatida);
- o'z-o'zini ishontirish (o'z imkoniyatlari, kuchi va irodasiga ishonish orqali, ijobiy xulq normalariga bo'ysundirish);
- o'z-o'ziga buyruq berish (tig'iz va ekstremal holatlarda o'zini qo'lga olish va maqbul yo'lga o'zini chorlay olish sifati);
- o'z-o'ziga ta'sir yoki autosuggestiya (ijtimoiy normalardan kelib chiqqan holda o'zida ma'qul ustanovkalarini shakllantirish);
- ichki intizom — o'z-o'zini boshqarishning muhim mezoni, har doim har yerda o'zining barcha harakatlarini muntazam ravishda korreksiya qilish va boshqarish uchun zarur sifat.

Yuqoridagi o'z-o'zini boshqarish mexanizmlari orasida psixologik nuqtai nazardan o'z-o'zi bilan amalga oshiriladigan **ichki dialog** alohida o'rin tutadi. *O'z-o'zi bilan dialog* — oddiy til bilan aytganda, o'zi bilan o'zi gaplashishdir. Aslida bu qobiliyat bizning boshqalar bilan amalga oshiradigan tashqi dialoglarimiz asosida rivojlanadi, lekin aynan ichki dialog muhim regulyativ rol o'ynaydi. Ye. Klimov bunday dialogning uch bosqichini ko'rsatib o'tadi. 4-jadvalda shaxs ichki dialogining bosqichlari va har bir bosqichga xos bo'lgan belgilar keltirilgan.

Demak, shaxsning qanday sifatlarga ega ekanligi, undagi baholarning obyektivligiga bog'liq tarzda o'z-o'zi bilan muloqatga kirishib, jadvaldagiga muvofiq shaxs o'zini nazorat qila oladi. Shuning uchun ham hayotda shunday kishilar uchraydiki, katta majlisda ishi tanqidga uchrasa ham, o'ziga holis baho berib, kerakli to'g'ri xulosalar chiqara oladi, shunday odamlar ham borki, arzimagan xatolik uchun o'z «ich-etini yeb tashlaydi». Bu o'sha ichki dialogning har kimda har xil ekanligidan darak beruvchi faktlardir.

X U L O S A

O'zbekiston mustaqil davlatga aylangan bir sharoitda ma'naviy va axloqiy tarbiya qator omillar ta'siri ostida amalga oshiriladi. Bu eng avvalo shaxsni umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirish maqsadida ish olib borishda ko'rinadi. Axloqiy sifat shaxsning barcha muhim xususiyatlarini yaxlit xolga keltiradi.

O'zbek xalqining moddiy va ma'naviy darajasining ko'tarilishi yangi axloqning kelajakdagi rivojlanishi va mustahkamlanishining ijtimoiy bazasini kengaytiradi, shaxs ehtiyojlarini yangi darajasi va undan oqilona foydalanishni shakllantiradi.

Shaxsning muhim ma'naviy sifatlari bo'lgan axloqiy ong, hissiyot va xulqni shakllantirish; vatanparvarlik, vatanga muhabbat, O'zbekiston gerbi va bayrog'i hamda madhiyasiga muhabbat, insonpavarlik, ongli intizom va boshqa tuyg'ularni kamol toptirish axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot yo'li. –T.: «O'zbekiston» –1995. -24 b.
2. Karimov I. A. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. T: « O'zbekiston», 1997 y
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
4. O'zbekiston Respublikasi Qonuni: Ta'lim to'g'risida. T.: «Sharq», 1997 y.
5. O'zbekiston Respublikasi: Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T.: «Sharq», 1997.
6. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. -T.: «O'qituvchi», 1993 y.
7. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. Darslik. –T.: «Sharq», 1997 y.
8. Mavlonova R, To'raeva O., Pedagogika. Darslik. –T.: «O'qituvchi», 2001 y.
9. Munavvarov A.Q. tahriri ostida. Pedagogika. T: «O'qituvchi», 1996 y.
10. Karimova V. Milliy istiqlol g'oyasini ta'lim jarayoniga joriy etishning pedagogik hamda psixologik asoslari. O'quv qo'llanma. –T.:«O'qituvchi»,2002 y.
11. Djumaboeva F. Talabalarni ijodiy fikrlashini rivojlantirish. O'quv qo'llanma. –T.: « O'qituvchi», 2002 y.

Internet manbalari:

[www.bilimdon](http://www.bilimdon.uz) uz

www.de.uz

www.plekhanov.ru

www.tgeu.uz

www.pomorsu.ru.

www.bankreferatov.ru.

www.elsu.ru.